

O‘ZBEKISTONDA KULOLCHILIK MAKTABLARINING IJTIMOIY-MADANIY RIVOJLANISHIDA “RISOLA”LARNING O‘RNI

TDSHU dotsenti, PhD Bobir Odilov

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda shakllangan kulolchilik maktablarining ijtimoiy-madaniy rivojlanishida hunarmandchilikka oid yozma manbalar — “risola”larning tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda kulolchilik maktablari faqat ishlab chiqarish texnologiyasi yoki estetik an‘ana sifatida emas, balki ustoz–shogird tizimi, kasbiy ierarxiya, axloqiy me‘yorlar va ma‘naviy qadriyatlar bilan bog‘liq murakkab ijtimoiy institut sifatida ko‘rib chiqiladi. Risolalar hunarmandlar muhitida kasbiy bilimlarni uzatish, ustaxona ichidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish, kasbiy etikani mustahkamlash hamda kasbning muqaddasligini asoslashda muhim manba vazifasini bajargani ko‘rsatib beriladi. Maqolada risolalarning kasbiy legitimatsiya, axloqiy nazorat, ustoz roziligi, kasb pirlariga e‘tiqod hamda hunarmandlik madaniyatining avloddan avlodga uzatilishidagi roli ochib beriladi. Shuningdek, risolalarning kulolchilik bezaklari, mahalliy uslublar va madaniy identitetni saqlashdagi ahamiyati ham yoritiladi. Zamonaviy davrda hunarmandchilikning turizm va madaniy merosni asrash jarayonlarida qayta qadrlanishi sharoitida risolalar ilmiy-metodik manba sifatida muhim ahamiyat kasb etayotgani ta‘kidlanadi. Tadqiqot natijalari risolalar kulolchilikni oddiy hunar darajasidan ijtimoiy-madaniy institut darajasiga ko‘targanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Kulolchilik maktablari, risolalar, ustoz-shogird an‘anasi, hunarmandchilik, kasbiy etika, ijtimoiy-madaniy institut, kasbiy legitimatsiya, madaniy identitet, an‘anaviy hunar, ma‘naviy qadriyatlar.

O‘zbekiston hududi qadimdan Markaziy Osiyoning yirik hunarmandchilik markazlaridan biri sifatida tanilib, ayniqsa kulolchilik san‘ati o‘zining uzluksiz tarixiy taraqqiyoti, hududiy maktablarining rang-barangligi hamda ijtimoiy-madaniy mazmuni bilan ajralib kelgan. Rishton, G‘ijduvon, Xiva, Shahrisabz, Samarqand, Toshkent vohasi va boshqa hududlarda shakllangan kulolchilik maktablari faqat ishlab chiqarish texnologiyasi yoki estetik did mahsuli emas, balki jamiyatning ichki ijtimoiy tuzilmasi, kasbiy bilim uzatish tizimi, ustoz–shogird an‘analari, mehnat taqsimoti, kasbiy

ierarxiya hamda ma'naviy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab ijtimoiy-madaniy institut sifatida shakllangan. Bu tizimning tarixiy davomiyligi va barqarorligini ta'minlab kelgan muhim omillardan biri hunarmandchilikka oid yozma manbalar, xususan, "risola"lar hisoblanadi.

Kulolchilik maktablari rivojini tahlil qilish jarayonida asosiy muammo shundan iboratki, hunarmandchilik ko'pincha faqat iqtisodiy faoliyat yoki amaliy san'at ko'rinishi sifatida talqin etiladi. Natijada kasbiy bilimlar uzatilishi, hunarmandning ijtimoiy mavqei, ustaxona ichidagi ierarxik munosabatlar hamda kasbning ma'naviy asoslari yetarli darajada ochib berilmay qoladi. Aslida esa kulolchilik ishlab chiqarishi ijtimoiy nazorat, axloqiy me'yorlar, diniy qarashlar va kasbiy legitimatsiya mexanizmlari bilan uzviy bog'langan. Mazkur jihatlarni tushunishda risolalar muhim tarixiy manba vazifasini bajaradi.

Hunarmandchilik muhitida risola ma'lum bir kasbga oid qoidalar, uning kelib chiqishi, kasb pirlariga oid rivoyatlar, ustoz-shogird munosabatlari, kasbiy odob me'yorlari hamda ishlab chiqarish bilan bog'liq urf-odatlarini o'zida mujassam etgan yozma manba sifatida shakllangan. Risolalar oddiy texnologik qo'llanma emas, balki kasb egalarining ichki hayotini tartibga soluvchi normativ hujjat vazifasini bajargan. Ularda ustozga hurmat, shogirdning sabr-toqati, halol mehnat, mijozga sadoqat, kasb sirlarini oshkor qilmaslik kabi talablar mustahkamlangan. Bu jihatdan risolalar kasbiy etikani shakllantiruvchi va hunarmandchilikni ijtimoiy institut darajasiga ko'taruvchi manba hisoblanadi.

Turk tadqiqotchisi Ertaylan o'rta asrlarda "rasm-fol-hunarmand" tushunchasi ko'pincha bitta shaxs faoliyatida mujassam bo'lganini ta'kidlaydi. Bu esa hunarmandning faqat ishlab chiqaruvchi emas, balki ma'naviy-ramziy bilim egasi sifatida qaralganini ko'rsatadi. Xorazm hududida saqlangan risolalarda ham hunar ilohiy ne'mat sifatida talqin qilinib, ustoz bu bilimni shogirdga yetkazuvchi vositachi sifatida tasvirlanadi. Natijada kulollik kabi hunar turlari oddiy iqtisodiy faoliyatdan yuqori ma'naviy qadriyat darajasiga ko'tarilgan.

Hunarmandchilik risolalarini ilmiy jihatdan o'rganish XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi davrida boshlangan. B.R. Rozen Sharq mamlakatlaridagi hunarmandchilik uyushmalari va ularning urf-odatlarini o'rganish ilmiy hamda amaliy

jihtadan muhim natijalar berishini qayd etgan¹. Keyinchalik A.F. Middendorf, N.O. Katanov, S.M. Smirnov, V.P. Nalivkin, N.P. Ostroumov, S.I. Laxtin, M. Gavrilov kabi tadqiqotchilar² O'rta Osiyoning turli hududlaridan hunarmandchilikka oid risolalarni to'plab, ilmiy muomalaga kiritganlar³. M. Gavrilov ma'lumotlariga ko'ra, XX asr boshlariga kelib hunarmandchilikka oid ko'plab risola nusxalari mavjud bo'lib, ularning asosiy qismi ustalar qo'lida saqlangan, bozorlarda esa deyarli uchramagan. 1909-yildan boshlab ayrim risolalar toshbosma usulida nashr qilinib sotuvga chiqqan boshlagan bo'lsa-da, ularning aksariyati hunarmandlar muhitida yopiq manba sifatida saqlanib qolgan⁴.

Bu holat risolalarning nafaqat diniy yoki ma'rifiy matn, balki kasb sirlarini saqlovchi ichki hujjat bo'lganini ko'rsatadi. Kulolchilik maktablarida ustozdan ruxsat olmasdan mustaqil faoliyat boshlash nomaqbul hisoblangan. Shogird ustoz roziligini olgandan keyingina usta sifatida tan olingan. Risolalarda esa ustozning roziligi va kasbiy fотиha muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayon kasbning legitimligini mustahkamlab kelgan.

Kulolchilik maktablarining ijtimoiy-madaniy rivojida risolalarning roli bir necha asosiy muammolar orqali namoyon bo'ladi. Birinchi muammo – kasbiy bilimlarning uzatilishi masalasidir. Kulolchilik texnologiyasi faqat yozma ko'rsatmalar orqali emas, balki amaliy mashg'ulot, ustozning bevosita nazorati va uzoq yillik tajriba orqali egallanadi. Risolalarda kasbning kelib chiqishi, ustozlar silsilasi va kasb pirlariga oid rivoyatlar keltirilishi shogirdlarda kasbga hurmat va sadoqat tuyg'usini shakllantirgan. Bu esa kasbiy bilim uzatilishining nafaqat texnologik, balki ma'naviy asosga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Ikkinchi muammo – axloqiy nazorat va kasbiy intizom masalasidir. Risolalarda hunarmandning jamiyat oldidagi mas'uliyati alohida ta'kidlanadi. Halollik,

¹ Розен Б. Р. Восточные ремесленные объединения и их традиции // Записки Восточного отделения Императорского русского археологического общества. – СПб., 1899.

² Гаврилов М. Рисоля сартовских ремесленников. Исследование преданий мусульманских цехов. – Ташкент: Типография при Казанском генерал губернаторе, 1912.; Остроумов Н. П. Рисоля тележных мастеров // Туркестанская туземная газета. – 1903. – №30–31.; Middendorf A. F. Очерки Ферганской долины. – Санкт Петербург, 1917.; Nalivkin V., Nalivkina M. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы. – Казань, 1886.; Шишов А. Сарты. Этнографическое и антропологическое исследование. – Ташкент, 1910.

³ Гаврилов М. Рисоля сартовских ремесленников. Исследование преданий мусульманских цехов. – Ташкент: Типография при Казанском генерал губернаторе, 1912.

⁴ Остроумов Н. П. Рисоля тележных мастеров // Туркестанская туземная газета. – 1903. – №30–31.

buyurtmachini aldamaslik, sifatsiz mahsulot tayyorlamaslik, ustozga hurmatsizlik qilmaslik kabi talablar kasbiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida qaralgan. Bu me'yorlar ustaxona ichida norasmiy nazorat mexanizmlarini shakllantirib, kasbning obro'sini saqlashga xizmat qilgan.

Uchinchi muammo – kasbiy legitimatsiya masalasidir. Hunarmand mustaqil usta maqomini olish uchun faqat texnologiyani o'zlashtirishi yetarli bo'lmagan, balki ustozdan ruxsat olishi ham zarur bo'lgan. Risolalarda kasb pirlari, ustozlar silsilasi hamda ustoz roziligining muhimligi ta'kidlanishi ushbu jarayonning diniy-ma'naviy asosga ega ekanini ko'rsatadi.

To'rtinchi muammo – kasbning muqaddaslashtirilishi masalasidir. Risolalarda hunar ko'pincha payg'ambarlar yoki diniy shaxslar bilan bog'lab tushuntiriladi. Bu esa hunarni oddiy ishlab chiqarish faoliyatidan yuqori ma'naviy qadriyat darajasiga ko'taradi va hunarmandni jamiyatda alohida maqomga ega shaxs sifatida shakllantiradi.

Kulolchilik maktablarida risola an'analari ustoz–shogird tizimi bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan. Shogird dastlab ustaxonada yordamchi ishlarni bajargan, keyinchalik esa shakl berish, bezak tushirish, pishirish kabi murakkab jarayonlarga jalb etilgan. Bu jarayon faqat texnologik tayyorgarlik emas, balki ijtimoiy va axloqiy shakllanish bosqichi ham hisoblangan. Risolalarda ustozga hurmatsizlik yoki kasbni tark etish og'ir ayb sifatida talqin qilingan bo'lib, bu kasbiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilgan.

Kulolchilik buyumlarida aks etgan shakl, bezak va rang tizimlari ham madaniy xotiraning muhim unsuri hisoblanadi. Har bir maktabga xos bezak tizimi avloddan avlodga uzatilgan. Risolalarda saqlangan kasbiy bilimlar bilan bir qatorda, bezak tizimlari ham mahalliy identitetni mustahkamlab kelgan. Natijada risolalar nafaqat texnologik tajribani, balki madaniy identitetni ham saqlovchi manba vazifasini bajargan.

Zamonaviy davrda hunarmandchilik bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi shakllarga moslashayotgan bo'lsa-da, ustoz–shogird an'anasi va risola ruhida shakllangan kasbiy me'yorlar hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Etnoturizm, madaniy merosni asrash va hunarmandchilikni rivojlantirish jarayonlarida risolalarda mujassam tajriba muhim metodik manba sifatida qayta qadrlanmoqda. Virtual muzeylar, raqamli arxivlar va

ilmiy tadqiqotlar orqali ushbu an'analarni keng jamoatchilikka yetkazish imkoniyatlari kengaymoqda.

Shunday qilib, risolalar O'zbekistonda kulolchilik maktablarining ijtimoiy-madaniy rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan. Ular kasbiy bilim uzatish, ustoz–shogird tizimini mustahkamlash, axloqiy me'yorlarni belgilash, kasbni muqaddaslashtirish hamda madaniy xotirani saqlash kabi vazifalarni bajarib, kulolchilikni oddiy ishlab chiqarish faoliyatidan murakkab ijtimoiy-madaniy tizim darajasiga ko'targan. Shu bois risolalarni o'rganish nafaqat tarixiy manba sifatida, balki zamonaviy hunarmandchilikni rivojlantirishning muhim ilmiy-metodik asosi sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.



GLOBAL SCHOLARS
SCIENTIFIC PUBLISHING